



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA HOKIMYATNING BO‘LINISH PRINSIPI TARIXI

Ikromov Otabek Ulug‘bek o‘g‘li

Andijon davlat universiteti

Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar:

Abdullayev Bekzod Xusniddin o‘g‘li

O‘zbekiston tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Abstrakt: O‘zbekiston Respublikasida barcha davlat organlarining samarali hamda adolatli faoliyat olib borishi uchun, ularning faoliyati uzviy bog‘liqligiga shikast yetkazmagan holda, bir-biridan mustaqil faoliyat olib borishi taminlangan.

Kalit so‘zlar: qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud, prezident, demokratiya, islohot.

Abstract: In the Republic of Uzbekistan, in order to carry out effective and fair activities, it is ensured that all state bodies are independent from each other, without harming the interdependence of their activities.

Key words: legislature, executive, court, president, democracy, reform.

Аннотация: В Республике Узбекистан в целях осуществления эффективной и справедливой деятельности обеспечивается независимость всех государственных органов друг от друга, без ущерба взаимозависимости их деятельности.

Ключевые слова: законодательная власть, исполнительная власть, суд, президент, демократия, реформа.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida o‘z fuqarolariga jahon talablariga mos demokratik, erkin, fuqarolik jamiyatini yaratishi lozim edi. Ayni shu maqsadda O‘zbekiston hukumati vakillari yosh davlatning dastlabki kunlaridanoq davlat organlarini alohida tarmoqlarga ajratdilar. Ushbu tizim dunyoning rivojlangan davlatlarida ancha avvalroq faoliyat olib borishni boshlagan edi. Ushbu jarayonning yurtimizga mustaqillikdan keyingina kirib kelishiga esa sobiq sovet hukumatining o‘lkada yuritgan mustamlakachilik siyosati sabab bo‘lgan. Ushbu xato va kamchiliklar esa o‘z navbatida mustaqil davlatning yangi hukumati oldiga qator tub islohotlar o‘tkazish talabini qo‘ygan. Shu boisdan O‘zbekiston Respublikasi hukumati vakillari O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimov boshchiligida qator islohotlarni amalga oshirdilar, hamda ushbu ishni bugungi kundagi O‘zbekistonning amaldagi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev davom ettirmoqda.

Natijalar



Xalqaro maydonda hokimyatni turli organlarga bo‘lib idora qilish metodi bundan ancha avvaloq qo‘llanila boshlangan, bu esa ushbu davlatlarning tez hamda davomli rivojlanishiga turtki bo‘lib hizmat qilib kelgan. Misol uchun bu haqida “Why Nations Fail” asari mualliflari fikricha hokimyat institutlari qanchalik liberal hamda to‘g‘ri faoliyat olib borsa, davlat shunchalik barqaror hamda yaxshi rivojlanar ekan. Bunga ular dunyoning qator rivojlangan davlatlarini misol qilib keltiradilar. Bular jumlasiga Buyuk Britaniya va Amerika Qo‘shma Shtatlarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Umuman olganda barcha rivojlangan Yevropa davlatlarida hokimyat qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimyat tizimiga bo‘linadi. Bu g‘oyani dastlab Yevropada “Uyg‘onish” davri mutafakkirlari ilgari surishgan.

O‘zbekiston Respublikasida ham hokimyatni bo‘lish prinsiplari davlat qurilishining ilk kunlaridanoq boshlangan. Bunga 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yaqqol misol bo‘la oladi. Konstitutsiyaning 11-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyatining tizimi — hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanadi.” –deyilgan. Bu esa O‘zbekistonning ilk kunlardanoq demokratik yo‘ldan yurganini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston hukumati hokimyat organlarining bir-biridan to‘la mustaqil faoliyat olib borishi uchun ularning bir-birini faoliyatiga aralashishini cheklagan. Misol uchun sud hokimiyatining faoliyatiga qonun chiqaruvchi va ijro hokimiyatlarining aralashuvi taqiqlangan [1]. Bu orqali ushbu organning boshqa hokimyat institutlarining bosimidan himoya qilingan.

Ikkinchi tomondan ijro hokimiyatiga dastlabki kunlarda prezident rahbarlik qilgan bo‘lsa 2003-yil 24-25-aprel kunlari bo‘lib o‘tgan Oliy Majlisning XI sessiyasida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Vazirlar Mahkamasining tarkibi, uni tuzish va tasdiqlash tartibi o‘zgartirildi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 89-moddasining “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti ayni vaqtda Vazirlar Mahkamasining Raisi hisoblanadi” deyilgan ikkinchi qismi olib tashlandi [2]. Bu esa hokimyat organlarining yanada liberallasuvi uchun kuchli turtki bo‘ldi.

O‘zbekiston Respublikasida qonun chiqaruvchi hokimyat ham alohida ahamiyatga ega. 1990-yil 18-fevralida saylangan qonun chiqaruvchi hokimiyat organi - Oliy Kengash faoliyat ko‘rsatmoqda edi. O‘zbekiston demokratik islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘lidan borib, birdaniga Oliy Kengashni tarqatib yubormadi. U 1990-1994-yillarda qonun chiqaruvchi hokimiyat organi sifatida faoliyat ko‘rsatdi. 1993-yil 28-dekabrda bo‘lib o‘tgan Respublika Oliy Kengashining XIV sessiyasida “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga saylovlar to‘g‘risida” va 1994-yil 22-sentabrda bo‘lib o‘tgan XVI sessiyada “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida” qonunlar qabul qilindi. Bu qonunlar Oliy Majlisning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etdi.



1995-yil 23-24-fevral kunlari yangi saylangan birinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining I sessiyasi bo'lib o'tdi. Unda «O'zbekiston Respublikasida deputatlarning maqomi to'g'risida»gi Qonun qabul qilindi, Oliy Majlis Raisi rahbarligida «Oliy Majlis Qo'mitalari va Komissiyalari to'g'risidagi Nizom» qabul qilindi. Parlamentning ishini tashkil etish uchun Oliy Majlis Raisi rahbarligida Oliy Majlis Kengashi tuzilib, uning tarkibiga Oliy Majlis Raisi o'rinbosarlari, qo'mitalarning raislari, Mandat komissiyasi raisi, parlamentdagi deputatlar bloki va fraksiyalarning rahbarlari kiritildi. Mazkur birinchi sessiyada «Inson huquqiari bo'yicha vakili (Ombudsman)» instituti ta'sis etildi. Bu orqali Oliy Majlis faoliyati yanada takomillashtirildi.

2002-yil 4-5-aprel kunlari bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VIII sessiyasida «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to'g'risida»gi Konstitutsiviy qonun qabul qilindi. Bu qonunda respublika parlamentining nomi Oliy Majlis deyiladi, u ikki palatali - quyi va yuqori palatalardan iborat etib tashkil etiladi, deb belgilab qo'yildi. Quyi palata - Qonunchilik palatasi, yuqori palata - Senat deb ataladi. Ularning vakolat muddati 5 yil deb belgilangan. VIII sessiyada Oliy Majlisning «2002-yil 27-yanvarda o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi Referendumining yakunlari bo'yicha amalga oshiriladigan qonunchilik ishlarining asosiy yo'nalishlari to'g'risida»gi qarorini ham qabul qildi. Xullas, bu hujjatlar ikki palatali parlament tuzish ishlarini boshlashga huquqiy asos bo'lib xizmat qildi.

Ikki palatali parlament o'z faoliyatini 2005-yildan boshladi va hozirgacha faoliyat olib borib kelmoqda. Oliy Majlisga kiritilgan bu o'zgarishlar sababli bugungi kunga kelib O'zbekistonda professional qonun chiqaruvchi davlat organi to'la shakllandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кодиржонов , О. ., & Муминов , Х. . (2024). Из истории судебной системы Узбекистана. *Общество и инновации*, 5(3/S), 110–113. <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss3/S-pp110-113>
2. Shamsutdinov R., Mo'minov H. O'zbekiston tarixi. –T.: Akadernashr 2019. –B 472